

Online test tizimida ro'yxatdan o'tish va ishlash tartibi

Foydalanuvchilar onlayn test tizimiga kirishlari uchun faqat bir marotaba ro'yxatdan o'tishlari talab etiladi. <http://test.dtm.uz/?mod=reg> havola (ssilka) orqali elektron pochta manzili ro'yxatdan o'tkaziladi. Va shu elektron pochta manziliga tasdiq-xat yuboriladi. Tasdiq-xatdagi tizimda ishlashni davom ettirishga mos havola (ssilka) tanlanadi. So'ng tizimda ishlash uchun ruxsat etiladi. Ro'yxatdan o'tkazilgan elektron pochta manzili login sifatida foydalaniladi.

Tizim foydalanuvchilari onlayn test tizimiga login va parol yordamida kiradilar hamda "Test yechishga o'tish" yoki "Foydalanuvchi kabinetiga kirish"ni tanlanadi. "Test yechishga o'tish" bo'limida foydalanuvchilar quyidagi fanlardan namunaviy test topshiriqlari ishlashlari mumkin:

Ona tili va adabiyoti;

Ingliz tili;

Nemis tili;

Fransuz tili;

Qoraqalpoq tili va adabiyoti;

Русский язык и литература;

Fizika (o'zbek, rus);

Tarix (o'zbek, rus);

Matematika (o'zbek, rus);

Biologiya (o'zbek, rus);

Kimyo (o'zbek, rus);

Geografiya (o'zbek, rus);

Informatika (o'zbek, rus).

Tizim tomonidan har bir fan bo'yicha 36 tadan test topshiriqlari savollar kitobi va javoblar varag'i sifatida generatsiya qilish orqali shakllantiriladi hamda ularga mos ravishda raqam beriladi. Har bir javoblar varag'i bo'yicha statistik ma'lumotlar bilan "Foydalanuvchi kabineti"da tanishish mumkin.

Test topshiriqlari ma'lumotlar bazasi davriy yangilanib boriladi.

"Foydalanuvchi kabinetiga kirish" bo'limida onlayn test tizimi foydalanuvchilariga o'zlari ishlagan test topshiriqlari bo'yicha statistik ma'lumotlar bilan tanishish imkoniyati yaratildi. Onlayn test natijalari jadvalidan javoblar varag'i raqami tanlangandan so'ng quyidagi statistik ma'lumotlar taqdim etiladi:

Jami savollar soni;

Noto'g'ri javoblar soni;

Noto'g'ri javob berilgan savollar raqami.

Shuningdek, javoblar varag'ining elektron shaklida ham joriy etilgan.

Online test tizimi bo'yicha murojaat uchun telefon: (998 71) 2355713

Elektron pochta manzili: ask@dtm.uz

DIQQAT! Ro'yxatdan o'tish vaqtida mavjud bo'lmagan elektron pochta manzili ro'yxatdan o'tkazilsa, bu elektron pochta manzili tizim administratori tomonidan o'chiriladi.